


Oriental Journal of Philology**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**HISTORICAL BASES OF THE VOWELS OF THE SUGDI LANGUAGE****MIRSODIQ IS'KHAQOV***Professor, DSc**TSUOS**Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: Sugdian language, short vowel, long vowel, middle Iranian language, phonetic change, reduction, stress.

Received: 15.05.24**Accepted:** 17.05.24**Published:** 19.05.24

Abstract: The article analyzes the origin of quantitative and qualitative phonetic changes specific to the stage of the Sugdian Middle Iranian language, and the practical cases of historical ancestral sound units in the Sugdian language.

SUG'DIY TIL UNLI TOVUSHLARINING TARIXIY ASOSLARI**MIRSODIQ IS'XOQOV***professor, tarix fanlari doktori**TDSHU**Toshkent, O'zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

Kalit so'zlar: Sug'diy til, qisqa unli, cho'ziq unli, o'rta eroniy til, fonetik o'zgarish, reduksiya, urg'u.

Annotatsiya: Maqolada sug'diy o'rta eroniy til bosqichiga xos miqdor va sifat fonetik o'zgarishlarning kelib chiqish yo'llari, tarixiy ajdod tovush birliklarining sug'diy tildagi amaliy holatlari tahlil qilinadi.

ИСТОРИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ГЛАСНЫХ СОГДИНСКОГО ЯЗЫКА**МИРСОДИК ИСЪХАКОВ***Профессор, доктор исторических наук**ТГУВ**Ташкент, Узбекистан***О СТАТЬЕ**

Ключевые слова: Сугдийский язык, краткая гласная, долгая гласная, среднеиранский язык, фонетическое изменение, редукция, ударение.

Аннотация: В статье, на примере практического состояния исторических соотношений согдийской системы гласных звуков, анализируются вопросы происхождения количественного и качественного изменений фонетических

KIRISH

Sugʻdiy unli tovushlarning qadimiy davrga xos umumeroniy xususiyatlardan ajralib, tarixiy rivojlanish yoʻllariga kirishida besh xil fonologik holat yuzaga kelgan:

1. Soʻz boshidagi qad. eroniy *a, *i, *u tovushlari bir yoki bir necha undosh qoʻshilmasi oldida kelsa sugʻdiyda yo qisqaradi, yoki yoʻqoladi;

2. Undosh tovushlar**anlautda** qad. eroniy davrdan meros yoki birinchi boʻgʻinda qisqa unililar qisqarishi taʼsirida innovatsion ikkilamchi hodisa sifatida jiplashib kelgan holatda soʻz oʻrtasida qoʻshimcha qisqa **-a- unlisi (protetik -a-)** paydo boʻladi;

3. Soʻz shakllarining oxirgi boʻgʻinida qad. er. choʻziq unililar qisqarishga moyilligi sababli soʻnggi boʻgʻin unlisining uzun-qisqalini farqlash sugʻdiyda qiyinlashgan. Yaʼni soʻz oxirdagi unli imloda barqaror emas – choʻziq ham, qisqa ham boʻlishi mumkin.

4. **i** tovushining umlaut pozitsiyasi natijasi oʻlaroq, *a, *ā, *u, hamda diftong *au tovushlari old qator unilarga aylanishi kuzatiladi.

5. Qad. er. boʻgʻin hosil qiluvchi **r** tovushining oʻzgarishi uning boshqa tovushlar oʻramidagi oʻrni bilan bogʻliq ekani: **r > qisqa unli + r / Ø >**; **r** yoki **r / Ø + qisqa unli**.

ASOSIY QISM

Quyida qad.er. unililar, ularning oʻzlaridan keyingi va oldingi unli yoki undoshlar bilan qoʻshilib kelgan holatda sugʻdiyda qanday aks etgani tahlil etiladi.

Sugʻdiy /a/ qoʻsh undosh oldidan soʻzboshi qad.er. *a- tovushidan qisqa /a/ ga aylangan: **ʾry** “narx, qiymat” < ***arga-**; **ʾnt /and/** “koʻr” < ***anda-**; **ʾztʾ /azda/** “xabar, darak”, ***azdā(h)**, xristian suryoniy sugʻdiy matnlarda - **ʾyztʾ**. /-zd/ undosh guruhi oldida **a-** tovushining torayishi natijasi deb taxmin bildirilgan (V.A.Livshits: – I.Gershevich. A grammar of Manichean sogdian. L., 1954. -§§ 84, 284). **ʾnkwšt /angusht/** “barmoq”; **ʾrsk /arsk/**, ikkinchi boʻgʻinda qisqa -a-ning tushib qolishi < araska.

1. Qad.eroniykoʻpboʻgʻinli soʻz shakllarini davom ettirgan sugʻdiy soʻzlarda soʻzboshi unlisi tushib qoladi: **pʾrʾyk, pʾryk, pʾryq** < ***aparyūka** “boshqa”; **kʾynk** < ***akīnaka** “xanjar, qilich”; **smʾn, ʾsmʾn** < ***asmānam** “osmon, koʻk”; suryoniy yozuvli matnlarda **štʾt**, milliy sugʻdiyda (**ʾštʾt**) < ***aštōti-** “sakson”; **prw** < ***aparu** “keyin, soʻng”; **pw (ʾpw) /ʾpu/** < ***apam** “be..., -siz”. Bu oʻrinda **ʾpw** variantidagi **alef** arxaik imlo yoki protetik yarim unli (ə)vazifasida; **ʾpsth, psth(h)** < ***abi-stana** “toʻxtovsiz, zudlik bilan” misoli ham shunday izohlanadi;

2. Qad.er. ikki boʻgʻinli soʻzlarning sugʻdiy reflekslarida soʻzboshi **a-** nisbatan barqaror. Bu demak ilk bosqich sugʻdiy tilda qadimgi birinchi boʻgʻinga tushuvchi urgʻu (aktsentli bosh boʻgʻ

‘in) ta’siri saqlangan: **’št** < ***aštā-** “sakkiz”; mug‘. **’t** < ***ati** – old ko‘makchi “...ga”; **’zw, zw** < ***azam** “men”; **sp, ’sp** < ***aspa** “ot”; **’sty, sty /sti/** “...dir”(mavjudlikni tasdiqlovchi modal so‘z);

3. Sug‘diy so‘zboshi **a**-< qad. er. ***hadandavom** etgan hollarda ba‘zan saqlanadi, bazan esa - yo‘q: **’xt** (Panjikent devoriy suratlarida ot tasviriningsoni ustdagi yozuv) < ***haxt** “son”; **’rt’t** < ***haurvātāt** “xo‘rd’t” (sug‘d taqvimida oyning oltinchi kuni nomi); **’c /ač/** < ***hacā** (ko‘makchi) “...dan”; **mywn /mayōn/** “barcha, hamma, to‘liq” < ***hama-gauna**; **cwn, cn /čon/** < ***hacā-avana**; **m’δ**, “Eski xatlar”da /**’m’δ /māδ** < ***hamāḡa** “shunday”.

Qad.er. ***r** dan davom etgan **arbirikmasidagi a**-oddiy qisqa **/a/ga** aylanadi: **’rtyw /art(i)xw/** < ***rtivahvi**- taqvimda oyning 25-kuni nomi, avestacha talaffuz shakli – **ašōiš van^hhuyá**; moniy yozuvli **’rōwk**, buddaviy matnda **’rōkw/arōuk, arōku/** “samimiy, chin yurakdan” < ***rduka-**, avestacha **arōdra-(ka)** “**arzigu(lik)**”.

Sug‘diy **/a/so‘z o‘rtasida** qad. er. ***a** ni davom ettiradi: **mrty/marti/** “kishi, odam”; **snk /sank/** “tosh” < **asanga**, avest. **asənga; z’wr /zōvar/** “kuch, qudrat”; budd. **’wpt-**, moniycha **’wp’t-** “yiqilmoq” < ***ava-pat-**; budd. **βrβ /βarβ/** “cho‘zmoq, tortmoq”; **β’rβ /āβarβ /** “ilgak, tugun” < ***barb-, *ā-barba-**.

Tarixiy **a** unlisining reduktsiyasi yoki boshqa qisqa unlilar singari so‘z o‘rtasida umuman yo‘qolishi birinci galdaularning urg‘usiz bo‘g‘inda kelishi hamda qisqa va cho‘ziq unlilarning bo‘g‘inlarda taqsimlanish rasamati bilan bog‘liq. Bu jarayon qisqa unlilarning yozuvda aks etishi yoki ifodalanmaslik an‘anasida yaqqol ko‘rinadi. Tilning amaliyotida bu hodisa so‘z negizining “yengil” (atematik) yoki “og‘ir”(tematik)ligi bilan ham bog‘liq: a) ***a** tarixiy ko‘p bo‘g‘inli so‘zlarning birinchi bo‘g‘inidayarim unli **ə** ga aylanishi (reduktsiyalashuvi), yozuvda <y> yoki <Ø>: **wytxwy, wytxy, wtxy /tuxwəwe, wətuxe/** “ozurda, g‘mgin <***wata-ahu** “yomon hayot”; ikki bo‘g‘inli so‘zlarda **a** < **ə** yoki **Ø**: avestacha **bazda**, sug‘diy **βj-, ’βj-**, xrist. **bj- /βəj, əβəj, əbž/** “yomon, yovuz”; mug‘. **’βš’m-**, xrist. **fš’m/əfšām/** “yubormoq, jo‘natmoq” < qad/er. ***fra-šōma-**

***a** ning ko‘pbo‘g‘inli so‘zlarning ikkinchi bo‘g‘inida yo‘qolishi: **znk, zng /zang/** “rang, tus, ko‘rinish” < ***zanaka**; budd. **šmn- /šamn/** “din peshvosi, shaman” < sanskr. **Śramana**; uchinchi bo‘g‘inda ***a** ning yo‘qolishi: **xwrmzt’ /xurmazda / > ahura-mazda**.

Sug‘diy **a** so‘z o‘rtasida >***a**. Bunday qisqarish oldingi bo‘g‘ndagi cho‘ziq unli ta’sirida ro‘y beradi. Bu xil o‘zgarishni P.Tedesko “ritmik qonun” deb atashni taklif qilgan. Ya’ni tarixiy ***cho‘ziq unli = cho‘ziq unli > choziq unli = qisqa unli** ko‘rinishida o‘zgarish qonuniy tus oladi: budd. **’γδ’k, ’γδyy “āγaḡe** “xohish, orzu-istak” < ***agādaka-**; budd., moniy. **rups /rōpas/ “tulki”** < **raupāsa-**; xrist. **p’crt**, muqobilidamoniy. **p’cr’t /pōčrat/** “mukofot, ajr, savob”; **fr’m’y** “u buyurdi” muqobilda **fr’m’y; ’γ’z – ’γz** “boshlamoq”, **’p’y/āpay/** “o‘ylamoq, (deb) hisoblamoq”.

ya hamda **va/ā** bo‘g‘inlari oldida ***ā** o‘rnida qisqa a paydo bo‘ladi: **sy’kh**, moniy. **sy’k**, xrist **sy’q /sayōk/** “soya, soyabon”. Yana quyidagi misollar: **-ōane < dōna-ka**; **‘wsty /ōstay < ava-stōya** “qo‘ymoq, solmoq”;

***ā**ning so‘z oxirida **-aga** aylanishi: **kō’ > kō < kadō** “qachon; agar”.

Cho‘ziq **/ā/**ning refleklari

***ā** old o‘rinda tarixiy **ā** holatini saqlaydi: **”p /āp/** “suv”; **”tr /ātar/** “olov, o‘t”; **”s’k /ās’k/** “kul” **< *āθra-ka-**; **ā-** prefix = ***ā**: **”βr-** “keltirmoq” **/āβar-**. ***āy** dan **ā** ga o‘tish qoidaga sig‘mas istisno holatdir: **”s-** “olmoq” **< *ā-yasa**.

Qisqa **a** dan cho‘ziq **ā** ga o‘tish: ***araθrika- >”rync/ārinč/** “tirsak”;

So‘z o‘rtasida **/ā/** = qad.er. ***ā**: **p’ō** “oyoq”; budd., moniy. **s’n /sān/ < *sāna** “dushman”; ***yāvāra > y’wr /yāvar/** “marotaba, gal”; **/yā/ < *ayā:βy’ryy /βyāre/** “oqshom” **< abi-ayāra-ka**.

/ā/ so‘z o‘rtasida **< *āh, ā/aha/ā** (-h- tovushi tushib qolgach): **/dāy/ < *dāya < *dāhi** “doya, enaga, cho‘ri”; **ptxw’y-** “o‘ldirmoq” **< pati-x^vaāhaya**;

/ā/ < *ah; ar < *anθr: moniy. **z’r < *hazahra** “ming”; **t’r’k /tāre/** “qorong‘i” **< *tanθraka-**, **avestachatāngθra-**.

/ā/ inlautda < *āu: ’xšn’m “kechirim, gunohdan kechmoq” **< *xšnāuman-**; budd. **’sβr’ck**, xrist. **sfr’cq / (ə)sfrāčk/ < *usfrāuč-** “ish, amal, kor-” kabi misollarda diftongning **-u-** elementi tushib qoladi.

*** āi diftongida** ham ikkinchi **-i-** elementi ***ā**udagi **-u-** kabi tushib qoladi: ***frāišaya- >pr”š(y) /frās(i)/** Qad.forsiy ***fra-aišaya-**, avesta. **fraēšaya-**, sug‘diy **/frēš/** “yubormoq, jo‘natmoq”.

So‘z oxirida **/ā/ < *ā, *ākā, *āh** kabi tovush birliklarining sug‘diy refleksidiri.

Bundagi fonetik **/ā/ : /a/** oppozitsiya morfologik negizning “yengil” yoki “og‘ir”ligi talabi bilan tanlanish va yo‘qolish xossasiga ega: muannas bosh kelishik shaklida, shuningdek, “yengil” negizning ***-ayā** bilan tugagan muannas birlik o‘rin kelishigida **/ā/** qadimgi **< *-ā** ni davom ettirgan: **δsty’(h) /dastyā/** “qo‘lida”.

Bosh kelishik muannas shaklda ***-ākā** bilan tugovchi negizlarda **/ā/ < qad.*ākā** dan qisqarish orqali paydo bo‘lgan.

Grammatik holatlarda “yengil” negizning muannas bosh kelishik shaklida **/ā/ < /*āh /** hamda boshqa kelishiklarda **/-yā/ < *-a/āyah**. bo‘lib, bosh kelishikdan tashqari barcha muannas shakllar uchun **/-ā/ < *āhi** shart mayli ma‘nosiga xizmat qiladi.

Sug‘diy **/i/** fonemasining tarixiy yo‘li

Agar ***i-** undosh guruh oldida so‘z boshida (anlaut) kelsa, demak **/i/ < *hi: ’yntkw /indku/** “hindi”; **-š va -z** tovushlari bilan boshlanadigan consonant guruh oldida **/i-/** qad.er. ***hi** yo‘qolgan: ***imada-ka > mdy** (tarixiy imlosi **’mō’, mō’)** **/mađe/** “shu yerda”; budd., moniy. **šm’r /šmār/ <**

*hišmāra- “o‘ylamoq”; moniy. škw-, šwk- /hišku-/ “quruq”; zβ’k < *hizvāka-, avesta. hizvā- “til”.

Tarixiy ikki bo‘g‘nli so‘zlarda so‘zboshi *i- dastlab > ə-, keyin esa, yo‘qolish tomon moyol bo‘lgan: ’mw, mw /əmu, mu/< *imam.

So‘zboshi /i/qad. *ai, *hai: budd. yḍxn /iḍxan/ yoki /yiḍxan/ “muzlik” < *aixa-dāna-, xδ / δx tovushlarining o‘rni almashgan (metateza); mug‘. yttkw-, budd. ytkw, xrist. ytw< *haytuka, sug‘iyda so‘z o‘rtasidagi -uk- metateza orqali -ku- ga aylangan.

So‘zboshi i- < *ya barqaror emas: ’yz-, yz- “sajda, ta’zim”, avest. yaza-ta > īzad “ma’bud”; budd. ’yks- /ikš-/ < Sanskrit yakṣa “jin”.

Kelib chiqishi umlaut bo‘lgan /i/: ’ync /inč/ < *yaunīka “yosh, navqiron”; xwt(’)ynh /xutēn/< *xvatāunī- “malika”; ’ym /im/ < *ahmi “mendirman”.

So‘z o‘rta /-i-/ < *i: wysp- /wisp-/ < *vispa- “hamma, har bir, barcha”; šys- /šis-/ avesta 9risaş “o‘ttiz”; jišt, žyšt / žišt-/ < *zišta/ “chirkinlik, iflos narsa”.

wy- / w-, ni- / n-, vi- / v- kabi imlo bir xilda ishlatilishi so‘z o‘rta /i/ ning reduksiyasi yoki yo‘qlishi qonuniyatini aniqlash imkonini bermaydi. Bu kabi imlo ko‘pbo‘g‘inli so‘zlarda inlaut /i/ning holati undosh tovush birikmali negizning “yengil” yoki “og‘r”ligi bilan bog‘liqdir:

a) Tarixiy birinchi bo‘g‘inda /*i-/ > /ə-/: budd. ’rw’št(’)k/ərwəšte/< *rwištaka- “pishiqlik, mustahkam(langan)”, avesta. urvišta-; moniy. ’ptr, xrist. ptr/(ə)ptar/avest. pitar-; ’nβ’nt /ənβand/ “sabab”.

b) Ikkinchi bo‘g‘inda /i/ > /-ə-/*bagina > βayn- “ibodatxona”; prefiks *pati < /pat-/ yoki /pət-/: ptyšm’r < *pati-šmār “hisob”.

Inlaut pozitsiyadagi tarkibida *y yoki *ibo‘lgan bo‘g‘indan oldin tarixiy *a > /i/ ga aylanadi/ Bu fonetik holat i-umlaut deyiladi: nyrk /nirk/ “nar” < *naryaka-, avesta nairyā-; kyšp- /kišp-/ “toshbaqa”; zyrn- /zirn/ < *zarnya-; budd. zyrt’k, moniy. zyrt’y /zirte-/ “sariq” < *zaritaka-.

i fonemasining umlautda urg‘u bilan bog‘liqligi

i-umlautning yuzaga kelishi va bunda fonetik o‘zgarishlari bir qator misollarda ko‘rish mumkin: budd., moniy. ’ztyw /əzdyu/ < *úzdahyuš (avesta. uzdahyu-). Bu misolda korinishicha qad. *-h- bilan *-a- tushib ketgan, biroq sug‘diyda qad. *-y- saqlangan. Xuddi shu so‘zning o‘rta fors (pahlaviy) tilli moniy diniy matnlardagi ko‘rinishida *-y- tovushi ham yo‘qolgan: **uzdah**; xrist. sug‘diysida dyx’w /dixāu/< *dāhyuāuš.

Umlaut /i/ tarixiy *a dan kelib chiqqan holatda bu hodisa urg‘uli bo‘g‘n oldida ro‘y beradi: myδ’n /miḍān/< *madyānah, avest. maidiyāna-; qo‘sh undosh oldida umlaut: /muxšak/ < *máxšikah. Ismiy negiz oxiridagi qad. -i juda erta yo‘qotilgan: /γr- /γar-/ < *γairi-“tog”.

Fe‘l negizlarida /i/ umlaut quyidagi hollarda kuzatiladi: qad. *a agar kauzativ o‘timli fe‘l modeli yasovchi *-aya oldida kelsa, ayniqsa tarkibida *ar (< r hamda *n) bo‘lgan

soʻzlarda: sugʻdiy *'zw'yrt/əzwirt-/* < **uz-vartaya-* > **uzvartya*. Bundagi *-aya* > *ya* > *i* kabi yoʻlni bosib oʻtgan. Qiyos: yagʻnobi *zivo/ōrt* “burmoq”; **pari-varzaya* > *prwyz /parwiž/* “parvarish qilmoq”; *ptβ'ynd/patβind/* < **pati-bandaya-* “qul qilmoq, bandi qilmoq”.

**-a* tarixiy **-ya* oldida kelsa */i/* ga oʻzgarishi mumkin; *np'yō* < **ni-padya*, avest. *ni-paiδya-*, yagʻnob. *nipid*; *myn* < **mainya* “oʻylamoq”; *nyš* < **nasya* “yoʻqolmoq”; qad. er. *-r-* ishtirok etgan **ryanegizdan* sugʻdiy *'βt'yr*, moniy *ftyr-*, *ftr-/ (ə)ftir-/* “oʻtib bormoq” < **fra-trya-*; *myr-/mir-/* < **mrya-*; *xwr-/xwar-/*, adest. *x'ar-*; *xwr-* kauzativ *xw'yr /xwir-/* “edirmoq”, avest. *x'airiya* “yedirilgan”.

Oʻtimli feʼl negizining unli tovushli modellarida qad. er. **u* dan soʻz oʻrtasida */wy/*, */i/* fonemalari hosil boʻlgan: *nywynt- /niywint/* < **ni-gundaya-* “kiydirmoq”; *'pyyz- /əpyiz-/* < **apa-guzya-* “yashirinmoq”, qiyos: *muγ. 'pxwyz- /əpxwēz/* < **apa-gauzaya* “yashirmoq”; *ptβyδ-*, *ptwyd-*, *ptbd- / (ə)ptβδ-/* “tushunmoq” < **pati-budya-*.

/iʼ/ < **-r-*: *kyrm*, *qrm*, */kiʼm/* “qurt” < **krmi-*; *wyrk-*, *wyrq- /wiʼk/* < **vrk*, sanskr. *vṛka-*, avesta. *vəhrka-*.

Bulardan tashqari */-i/* < **-ayah*; < **-iyah*; < **-ah* variantlari ham mavjud.

Xulosa shuki, soʻzboshi, oʻrta va oxiri pozitsiyalarida */i/* ning kelib chiqish tarixi turli omillar bilan bogʻliq boʻlgan.

Choʻziq ī haqida

Choʻziq ī soʻz boshida qad. **ī* ni davom ettirgan. Aslida bu fonema diftong **aidan* < **ē* < *ī* (*i/ə*) ga tomon rivoj yoʻlidir.

Choʻziq ī: < **īhi*: *nyδ- /nīδ-/* < **nihida-* “oʻtirmoq”; < **i/īya:ʼtδrtyk*, moniy. (ʼ)štyk < **Ǿritiyaka*; *βyr-* “olmoq” < **abiyar-*.

Soʻz oxirida kelib chiqishidan qatʼiy nazar choʻziq *-īyoʻqoladi*. Baʼzi kelishik shakllaridagi fleksiylar choziq I ga oʻxshashi mumkin. Lekin bu faqat grafik oʻxshlikdir.

/u/ fonemasining tarixidan

Soʻz boshida */u/* > qad.er. **u*, **hu*: *juft* yoki toʻp undosh oldida: *wyt- /uyd-/* - oʻtkan zamon oʻzagi “gapirmoq”, avest. *t- /u ūzta-/*; *'wββd-/* “uxlamoq” > **hufta-*; *'wš- /uš-/* “tong, sahar chogʻi” > avest. **ušah*; *'wβyw* “ikkov; hamda” < **ubaya-*, *ubayam-*. Soʻnggi bosqichda *byu*, *by* sakllargacha oʻzgargan;

/u/ fonevasi tushib qolish hollari: **uzdahyu* > *'ztyu- /əzdyu-/* “haydalgan, joʻnatilgan”; *'pstkʼry*, *pstkʼry* “yordamchi” */əpastkāre/*; *'ty* < **uta/ā* “u yer”; */ʼsk-*, *sk-*, *sq- /usk-*, *əsk-*, *sk-/* avest. *uskāt* “yuqori, baland, koʻproq, yana ham”.

**v-* undoshning tarixiy unilashuvi natijasi oʻlaroq, */u-/* unli fonema yuzaga keladi. Biroq, bu jarayon bilan bir vaqtda */u-/* bilan */w(ə)/* ham biri-biriga almashtirib ishlatilgan. Shu sababli soʻzoldi */u/* bilan */w/* badalligi (alternativligi) tugab, */u/* fonemasi barqaror boʻlgani haqida xulosa

chiqarish qiyimn: *ʷštmʷx/uštmāx/*, qiyos: moniy. *wyštmʷx, wštmʷx /wəštmāx/ < *vahištaatama-ahu* “behisht, jannat”.

*/u/ < *v-*; xrist. *ʷšnty /ušande/*, moniy *wšn- /ušn/* “och” *< *vrš-, *vršna-* “och” (*-rš-* undosh oldida *v- > u*); *ʷpʷrs-, wpʷrs, wprs /upʷrs-/ < *vi-prsa-* “soʻroq, savol”; *wγʷm (γwʷm, wγ/ γw – metateza) < *vi-gāma* “mehmon, kelgindi”; *wʷ*

Soʻz oʻrtasida (inlautda) */u/ < *u: δwm-* *< avest. duma-*; *γntwm, γntm /γandum/*, *avest. gantuma-*; *pγwšt- /pəγušt-/* “yashirin(moq)” *< *api-gušta-*; *δʷrwk* “daraxt” *< *dāruka-*; *ʷnkwpyn < *angu-paina-* “asal”; *δrywšk-, zywšk-, jwxšk-, jwxšq < *driguška-* “talaba, oʻquvchi”.

Bir qator fonologik vaziyatlarda tarixiy **uyoʻqoladi: *mudrā-* “muhr”, lekin sugʻdiyda *myδr- /məδr (məš)/*.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Основы иранского языкознания. Древнеиранские языки. – Москва: ГРВЛ, 1979.
2. Основы иранского языкознания. Среднеиранские языки. – Москва: ГРВЛ, 1981.
3. Gershevch I. A grammar of manichean-sogdian. – London, 1954; 1960.
4. Исхаков М.М. Глагол в согдийском языке. – Ташкент: Фан, 1977.
5. Согдийские документы с горы Муг. Чтеник, перевод и комментарии В.А. Лившица. – Москва, 1962.
6. Лившиц В.А. Согдийская эпиграфика Средней Азии и Семиречья. – Санкт-Петербург, 2008.
7. Заршинос Зухра. Суғд тили тарихига бир нигоҳ. Форс тилидан О.Шокиров таржимаси. – Тошкент: ТДШИ, 2005.
8. Мирсодиқ Исҳоқов, Бобир Ғоибов. Суғдий ёзув чизма шакллари археогрмматологияси. – London: GlobeEdit, 2023.